

SADRIDDIN SALIM BUXORIY SHE'RLARIDA VATAN MAVZUSI TAHLILI

Annotatsiya. Buxorolik xassos shoir Sadridдин Salim Buxoriy she'riyati Vatanga, uning bir bo'lagi hisoblanmish Buxoroga bo'lgan qaynoq mehr, muhabbat ruhi bilan sug'orilgan. Bu she'rlarda vatansevar lirik qahramon siymosi gavdalanib turadi. Maqolada shoirning vatan haqidagi she'rlari badiiy tizimga solingan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mavzu, ma'naviy dard, kechinmalar silsilasi, hikmat, she'riy maktub, tashbeh, istiora.

Аннотация. Поэзия Садриддина Салима Бухари, чуткого поэта из Бухары, проникнута духом любви и привязанности к Родине, Бухаре, которая считается ее частью. В этих стихотворениях воплощен образ патриотического лирического героя. В статье стихи поэта о Родине помещены в художественную систему и проанализированы.

Ключевые слова: тема, душевная боль, ряд переживаний, мудрость, поэтическое письмо, аллегория, метафора.

Annotation. The poetry of Sadridдин Salim Bukhari, a sensitive poet from Bukhara, is imbued with the spirit of love and affection for the Motherland, Bukhara, which is considered part of it. These poems embody the image of a patriotic lyrical hero. In the article, the poet's poems about the Motherland are placed in an artistic system and analyzed.

Key words: theme, mental pain, series of experiences, wisdom, poetic writing, allegory, metaphor.

“She'riyat, – yozadi otaxon adabiyotshunos Umarali Normatov, bu shoir – ijodkor tarjimayi holi, qalb silsilalarining ko'zgusi” [1.49]. Haqiqatan, mutolaa etayotganimiz buxorolik xassos shoir Sadridдин Salim Buxoriy she'rlariga nisbatan shu fikrlarni aytish mumkin. Buxoroga cheksiz muhabbatdan, yuksak e'tiqoddan, “darveshona ishq”dan tug'ilgan yoniq misralar shoirning “qalb silsilalari ko'zgusi” sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, uning samimiyat bilan yo'g'rilgan she'riyat bag'rida ko'hna va boqiy Buxoro manzaralari, unda yetishgan ulug' siymolar, shu yurt ma'naviyati va kamoloti uchun xizmat qilgan zamondoshlarimiz timsollari bo'y ko'rsatib turadi. Ayni choqda, shoirning o'tli satrlarida tug'ilib-o'sgan zamin – Buxoroga o'tli muhabbat “nurli chaman” O'zbekistonga muhabbat bo'lib jaranglaydi.

Sadridдин Salim Buxoriy she'rlarida Buxoroning o'tmishi va buguni aks etib turadi. Ma'lumki, o'tgan asrning 70-80 yillarida ko'hna shahar obidalari vayrona holatga kelgan edi. Bu og'riqli nuqta yurtparvar, elparvar shoir qalbiga ozor beradi:

Yuragim misoli Buxoro –
Uning ham qal'asi vayrondir
O'n ikki lang ochiq darvoza
Ehromin ko'rganlar hayrondir [2.23]

Bunda shoir Buxoroni urib turgan yuragiga qiyoslaydi. Taniqli adabiyotshunos Ergash Ochilov ta'kid etganiday, “Buxoro uning uchun har kun har nafas oladigan havoday gap” [3.97].

Buxoro minoralari – ko'hna tariximiz oynasi. Shoir talqinicha, ular Buxoroga sobit. Ildizi zaminga tutash gumbazlar, ming yillik chinorlar, minoralar shahar timsoli, qadim tarix ko'ychisi aslida.

Yuragim misoli Buxoro –
Uni zabt etolmas tojdorlar

Qamalga, ochlikka bo'ysunmas –
Gumbazlar. Daraxtlar. Minorlar.[2.23]

Xuddi shu she'r yozilgan bir paytda O'zbekistonning yana bir qalbi uyg'oq shoiri Muhammad Yusuf "Ko'hna quduq" nomli doston yaratdi. Asar shoirning Buxoroga qilgan safari taassurotlaridan so'zlaydi. Ushbu taassurotlarda bundan o'n besh-yigirma yillar oldingi Buxoro holatidan kuyunish, achinish aks etgan satrlarda ikki yurtparvar shoirning tuyg'ulari, qalbni jarohatlagan dardlari tutashadi. Muhammad Yusuf ham ko'hna Buxoro obidalarini nurab borayotganligidan chuqur iztirobga to'ldi va bu tuyg'ular qog'ozga doston bo'lib to'kildi:

Qanday go'zal eding Buxoro,
Osmono'par gumbazlar aro.
Men ziyorat qilib ovvora,
Topolmadim bir sog' minora. [4.108]

Shoir Buxoro obidalarining "bemorlanishi"dan ozorlanadi, cheksiz ma'naviy dardni his etadi. Shukurkim, istiqloq yillaridagi bunyodkorlik tufayli ular asl holiga qaytadi.

Shoirning xorij safari davrida yozilgan she'rilarida ham Buxoroga cheksiz mehr yoqlanib turadi. Binobarin, "O'g'limga xat" she'rida yurt sog'inchida yongan shoirning qalb prizmasidan o'tgan nozik kechinmalar silsilasi namoyon bo'ladi. Shoir o'g'lga "Tirik Vatansan" deb murojaat qilishida diyor sog'inchi va ishqini his etish mumkin:

Buxoroda Buxoro kabi
Yashamoq ham baxtdir, lojaram.
Buxoroni tirik saqlamoq
Hammamizga bog'liqdir, bolam.[2.58]

Binobarin, "Buxoro kabi yashash" shoirning hayotiy va falsafiy fikrlari tajassumi. Mazkur ifoda orqali har bir toshi hikmatga barobar, tarixi ming yillar bilan bo'ylashadigan shahardan sobitlik, sadoqat, e'tiqod singarilarni undan o'rganish kerakligi uqtiriladi.

Farzandga sog'inch ruhida bitilgan ushbu she'riy maktub Vatanni ulug'lashdan tashqari, "tirik orzu va tirik umid" bo'lgan o'g'ilga hayotiy o'git vazifasini ham o'taydi.

Shu satrlarga uyg'un ikkinchi bir she'r ham xorij safari davrida yozilgan. Shoir "keksa Buxoro ko'zi bilan Mag'ribni tomosha qiladi", shunday lahzalarda o'z yurtining quyoshi taftini his etadi, qadim Minorni o'ziga hamroh sezadi quyidagicha xulosaga keladi.

Qiyofamda huvaydo Vatan,
Qiyofamda o'zbek huvaydo.[2.59]

"Buxoro. Zilziladan so'ng" she'rida ham falsafiy fikr ko'zga tashlanadi:

Ey Minora! Salomatmisan.
Kelayapman sahardan yo'qlab.
Chunki sening oyoqlaring yo'q,
Kelolmaysan holimni so'rab [2.19].

Shoir minorani insonlashtiradi. Unga nisbatan qo'llangan "bobomning bitgan shoh bayti" ijodkorning badiiy topilmasidir. Chunki Buxoroda obidalar bisyor. Biroq "bitiklarining munaqqashligi, bezaklarning olamgirligi" jihatidan Minora yagona. Odatda, g'azallarda fikr qaymog'i ifodalangan satrlarga nisbatan "shoh bayt" atamasi ishlatiladi. Shu ma'noda, Minora tarixiy obidalar orasida "shoh bayt" yanglig' yuksak mavqega ega.

Zilzilalar, dovullar bekor,
Buxorodir bizlarga vatan.
Shul mo'tabar keksa onaga
Sen ham farzand, men ham bir farzand. [2.221]

Shoir aytmoqchi, Buxoro – Vatan abadiy, unga zilzilalar va dovullar ham kor qilmaydi. Adabiyotda uni onaga qiyoslash an'anadir. Shoir o'ziga xos yo'l tutadi, uni keksa onaga mengzaydi.

Meni izlab mozorlarga bormang zinhor,
Qalb rishtasi shu Vatanga boylangandir.
Buxoroga kelib qarang takror-takror,

Sadriddin ham Buxoroga aylangandir [2.212]

Shoir o'z taqdirini tug'ilib o'sgan yurt va shu diyori bilan vobastalikda ko'radi. Aslida, mozorlar ham Vatanning bir parchasi, inson bir siqim tuproqqa aylanadi. Biroq lirik qahramon o'zini mozorlardan emas, balki xalq qalbidan izlashni so'raydi. Chunki bunday insonlar xalq dilida muhrlanadi, abadiy yashaydi. Zero, "Sadriddin ham Buxoroga aylangandir" satridan shu fikrlarni anglash mumkin bo'ladi.

Vatan – Bahouddin, Vatan – Buxoriy,
Vatan Xoja Jahon qo'lidagi tug',
Vatan, bu – opamning ko'zdagi ori,
Shu bois muqaddas, shu bois ulug'!

Yuqoridagi satrlar o'ziga xos mazmunga ega: shoir vatan timsolini uning bag'rida yetishgan ulug'lar: Buxoriy, Xoja Jahon siymosida ko'radi. Yoki Vatan or-nomus timsoli ham. Shu bois bu shonli go'shani shoir opasining orida ko'radi.

Vatanni himoya etaman demoq
Buxoriyga qalqon bo'lmoq, lojaram,
Vatangado qalbida bor ming yamoq,
Vatangado qalbida bor ming alam.

Shoir fikricha, Vatanni himoya qilish uning ulug' farzandlari nomini himoya qilish bilan keng. Binobarin, vatangadolik – achchiq qismat. Shu bois yurt dardi uining qalbiga yamoq solgan, har yurt haqida o'ylaganida qalbini alam o'rtaydi. Keyingi banddagi "Nongado baxtlidir Vatangadodan" satridan inson nonga zor bo'lsa ham, vatanga zor bo'lmasin, degan hayotiy mazmunni anglash mumkin.

Qalbim rishtalari Yurtga boylandi,
Har ko'kargan daraxt, har yaproq Vatan!
Onam tuproq bo'lib yerga aylandi,
Onamga aylangan shu tuproq Vatan! [2.200]

Ushbu misralarda ham falsafa kuchli ifoda etilgan: zero, vatansevar butun vujudi bilan unga bog'lanadi. Qolaversa, har ko'kargan daraxt, har yaproqda Vatan aks etadi. Vatan onadek aziz, mukarram. Shu jihatdan lirik qahramon uning tuprog'ida onasini ko'radi. Ya'ni inson alaloqibat tuproqqa aylanadi, vatan tuprog'iga bosh qo'yadi, endi u tuproq bo'lib yashaydi.

Ma'naviyat daraxtisan, Vatanim,
Ilmu hikmat nur taxtisan, Vatanim.
Jumla jahon senga qarab talpinar,
Avliyolar poytaxtisan, Vatanim! [2.219]

Vatanni shoir ma'naviyat daraxti, ilmu hikmat nur taxti, avliyotlar poytaxti deya ta'rif etadi. Bu nafaqat, muazzam Vatanni, unnig bag'ridagi Buxoroni jon qadar sevadi.

Men borimni tutdim senga,
Qalbim – borim, davlatim,
Shiroqdan qo'rqqanday nega
Mendan qo'rqmaskan g'anim?!

Qanday inson borini vataniga berishga tayyor, Albatta, uni yurakdan sevgan kishi. Shoirning lirik qahramoni ham borini – qalbi, bori, davlatini unga hadya etgan. Keyingi satrlarda talmeh bor. Shiroq xalq rivoyatlaridagi obraz bo'lib, u Doro qo'shinini aqli, tadbirkorligi bilan yengib chiqqan milliy qahramon, vatan timsoliga aylandi. Talmehda shunga ishora bor.

Shuhrat emas chorlagan sas,
O'g'lingdirman, bag'rim but.
Ildizlarim senga payvast,
O'zbekiston, ona yurt.

Umuman olganda, Buxoroni, serquyosh diyorumizni harorat bilan sevgan va kuylagan SadriddinSalim Buxoriyning hikmatga yo'g'rilgan she'rlari zamonaviy adabiyotimizning nurli sahifasi bo'lib qoladi. Zero, shoir she'rlaridan birida:

Men ildizga aylanurman,

O'ldi bu deb ko'mgan chog'.

Sen gullayver Ona-Vatan,

Sen gullayver, ona bog' [2.68],-

deb yozgan edi. Aslida bu shoirning bashoratidir. U endilikda nafaqat ildizga, balki Buxoroyi sharif timsoliga, uning ildizi, mustahkam chinoriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Ijodkorning haroratli so'zi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
2. Sadriddin Salim Buxoriy Tanlangan asarlar: (She'rlar, badialar, tarjimalar, publitsistik maqolalar) – T: "Sharq", 2021. – 624 b.
3. Salimov S. Ro'molcha. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
4. Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroga Buxoro keldi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.